

**BAHODIR QOBUL ASARLARIDAGI PERSONAJLAR MULOQOTIDA
KOMMUNIKATIV VAZIYATNI YUZAGA KELTIRUVCHI BIRLIKLAR.
DISKURSIV YONDASHUV**

Anvarova Mohinur Feruz qizi

Samarqand davlat universiteti

Lingvistika : o‘zbek tili II kurs

magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada personajlarning muloqot jarayonida kommunikatsiyaning qanday yuzaga chiqishi, ular qanday birliklardan foydalanganligi, kommunikativ strategiyaning qanday tuzilganligi haqida hamda qissadagi semantik ma’noviy qismlarni metaforik usulda yasalgan o‘rinlari va ularning qanday sema hosil qilishi haqida fikrlar keltirildi

Kalit so‘zlar: diskurs, pragmatik yondashuv, personaj, kommunikatsiya, muloqot, birlik, vaziyat, metafora, sema, likgvomadaniy, asl ma’no, lingvistik an’ana, ijtimoiy qiyofa, ichki sema, strategiya.

ABSTRACT

In this article, thoughts are given about how dialogue occurs during the communication process of the characters, what units they use, how communicative strategy is structured, and the places of the semantic meaning parts in the story are made in metaphorical way and how they create a seme.

Key words: discourse, semantics, analysis, approach, pragmatic, approach, karakter, communication, dialogue, unity, situation, metaphor, seme, linguacultural, original meaning, linguistic tradition, social image, internal seme, strategy.

Insoniyat muloqotga kirishar ekan, albatta undan biron maqsadni ko‘zlaydi. Semantikada diskurs tushunchasining qo‘llanilishi yanada murakkabroq. Diskurs semantikasi - bu intellektual tadqiqotning muayyan sohalarida lug‘atdan qanday foydalanishimizni tahlil qilish. Bu tahlil til va tuzilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni, masalan, gap va u mavjud bo‘lgan kengroq kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Bunga misol sifatida gapda olmoshning qo‘llanilishini keltirish mumkin, o‘quvchi yoki tinglovchi uni faqat bog‘langan holda tushunishi mumkin.[1]

Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnga qo‘shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o‘z ichiga oladi. "Diskurs" atamasi lingvistika sohasida ham juda ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952 yilda nashr etilgan "Diskur tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to‘liq ko‘lami so‘nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi. Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashish, bir-biriga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o‘zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha “discursus” - muhokama so‘zi dan olingan bo‘lib, hissiy bevosita, intuitiv, ya‘ni muhokama talab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Soddaroq qilib aytganda, bu ta‘rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma‘nosi ilgari suriladi.

Muloqot mavjud ekan unda kommunikativ vaziyat ham mavjud bo‘ladi va bunda, albatta, kommunikativ strategiya bo‘lishi kerak hisoblanadi. Kommunikativ strategiya esa birinchi navbatda diskursning asosiy komponentlaridandir. Ma‘lumki ,

diskursda obyektning u yoki bu xususiyatigina emas, subyektning kommunikativ maqsadi ham ifodalanadi. O‘rta asrlarda kommunikativ intensiya falsafiy tushuncha sifatida paydo bo‘lib, maqsad, niyat, mo‘ljallanish ma’nolarini anglatgan . [2: 523]

"Diskurs - bu keng tarixiy ma’nolarni yetkazish uchun tilning ijtimoiy jihatdan qo‘llanilishi. Bu qo‘llanilishining ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo‘llanayotgani bilan belgilanadigan tildir. Til hech qachon "neytral" bo‘lolmaydi, chunki u bizning shaxsiy va ijtimoiy dunyolarimizni bog‘lashga xizmat qiladi. " [3].

Adabiyotda diskursning ahamiyati. Badiiy asar tili orqali kommunikatsiyaga diskursiv yondashuv. Har qanday turdagi nutq inson xatti-harakati va shakllanishining eng muhim elementlaridan biridir. Miyaning fikrlarni so‘zlarga aylantirishi va, albatta, muloqot miyani qanday shakllantirishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi. Ko‘pgina tadqiqotlar turli tillarda so‘zlashuvchilar tushunchalarni turlicha tushunishlariga qaratilgan. Shunday qilib, nutqning yaratilishi va tarqalishi inson zotining abadiyligi uchun eng muhim ahamiyatga ega. Adabiyot nutqni saqlash va dunyoni tushunishning yangi usullarini yaratishning asosiy usullaridan biridir. Boshqa madaniyatlar va boshqa davrlardagi badiiy diskurs namunalarni o‘qish orqali biz ularning mualliflari qanday fikrda ekanligini yaxshiroq tushuna olamiz. Darhaqiqat, o‘zimizning go‘zal madaniyatlarimizdan adabiyotlarni o‘qish bizning fikrlash va o‘zaro ta’sir qilish usullarini yaxshiroq ta’kidlashi mumkin. Har bir yaratilgan adabiyot asari diskurs namunasi bo‘lganligi sababli, badiiy diskursni tushunishimiz adabiyotni tushunishimiz uchun juda muhimdir. [4]

So‘z qo‘llash va undan foydalanishni san’at darajasiga ko‘tara olgan ijodkorlardan biri Bahodir Qobuldir. Adib badiiy nutqining obrazlilikini, tasviriyligini hamda ta’sirchanligini oshirish uchun hamda ayni damda kommunikatsiyani yuzaga chiqarish maqsadida tilning turli tasviriy vositalaridan keng foydalangan. Yozuvchi hikoyalari tilini bezashda ko‘chimning metafora, metonimiya kabi turlaridan mohirona foydalanib, o‘zining betakror uslubini yaratdi. Bahodir Qobulga hos lingvistik mahoratni belgilashda mazkur jihat o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida ko‘chma ma’no hosil qiluvchi hodisalar bir necha turga bo‘lib o‘rganiladi. Jumladan, fransuz tilshunosi J. Maruzo ko‘chma ma’nolarni metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Rus tilshunoslari A. A. Reformatskiy hamda D. N. Shmelev ko‘chma ma’no hosil qiluvchi hodisalarni to‘rt guruhga bo‘lganlar, yani J. Maruzodan farqli ravishda funksiyadoshlik hodisasini qayd etadilar. [5]

Zero, metaforalar yozuvchining individual uslubini, asar badiiyatini ta’minlovchi muhim tasviriy vositadir. Shu bois biz Bahodir Qobul hikoyalarida qo‘llangan metanimiyalarning personajlar nutqidagi kommunikativ vaziyatning yuzaga chiqish jarayonidagi rolini ham tahlil qilamiz.

Asarda metanimiyalarning qo‘llanilishi orqali qahramonlar nutqining qay tarzda ifodalanishi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakteridagi ijobiylik va salbiylikni baholashda, fiziologik holatni tasvirlashda, personajlarning tashqi qiyofasi, intim-ruhiy holatlarini tasvirlashda, qahramonlar nutqini individuallashtirishda mohirona foydalangan. Masalan: - Joyiga qo‘y deya pman, Sariq oshkadi.

Ushbu misolda nutiqy vaziyatni yuzaga keltirish predmeti, kommunikatsiya hosil qilivchi birlik sifatida sariq oshkadi so‘zshaklini olishimiz mumkin. Keltirilgan jumlada oshkadi leksemasi o‘zining genetik semasini shaxsga ko‘chiradi va shu bilan ko‘chma ma’no hosil qiladi. Oshkadi leksemasi quyidagi semem strukturaga ega:

oshkadi – a) poliz ekini; b) shaxsning tashqi qiyofasini ifodalaydi; v) shevaga hos so‘z (adabiy tilda oshqovoq); g) usti sariq, urug‘li narsa.

Bunda a,v va g semalar oshkadi leksemasining genetik semalari hisoblanadi. Yuqoridagi kontekstda b sema ancha boshqacha ma’no kasb etadi. Bunda ko‘chma ma’no hosil bo‘lyapti va bu ma’no badiiy mazmunniifodalashga xizmat qilyapti. Yozuvchi bolakayning obrazini individuallashtirishda oshkadi leksemasining tashqi xususiyatlari bilan qahramon qiyofasini ochib berishga harakat qilingan. Qissada qahramon bola sariqdan kelgan bolakay bo‘ladi va bu misolda uni opasi shunday ataydi. Bundan tashqari yana bir o‘rinda uning otasi ham uni shunga yaqin laqab bilan chaqiradi: - Mana Sariqbola, sizga , - dedilar otam galife shimlarining o‘ng

cho‘ntagidan ikkita yigirma tiyinlik oq tanga va bitta yashil uch so‘mlik va ikkita sariq bir so‘mliklarni olib.

Kommunikatsiyani yuzaga keltirish uchun yozuvchi ba‘zan shunday ma‘no ko‘chish holatlaridan foydalanganiki, ular so‘z genetik xususiyatidan kelib chiqqan holda ba‘zan o‘sha asl semaga zid ravishda sema hosil qiladi. Asardan quyidagini misol qilib keltiramiz: Qishloq ko‘chasidan chiqishimiz bilan Bozorjoyning yalang maydoni, maydonning bir chetida turgan ikkita avtobusning **qorasi**, ularning qizil chiroqlari ko‘zga tashlandi. Gapdagi avtobusning qorasi birikmasidagi qora so‘zi asl ma‘nosini avtoullovning harakati natijasida kelib chiqadigan xususiyatga ko‘chiradi. Bunda qora semasini quyidagicha semem qurililishga – ma‘noviy turlikka ega deyish mumkin: qora- rang; qora- sovuqlik ramzi.

Biroq buyerda har ikkala semadan ham foydalanilmagan, ya‘ni qora so‘zining sovuqlik ma‘nosi yoki aynan rang ma‘nosi anglanishi uchun ishlatilmagan. Aksincha, bu yerda ijobiy semasi yuzaga chiqqan. Ya‘ni yo‘lovchilar ulovdan qolib ketmasliklarining bir signali sifatida qo‘llanilgan. Yana bir tomoni bor-ki, qora semasi voqelik jarayonida oq leksemasiga antonim semani hosil qilgan. Chunki, odatda yo‘l yurayotganlarga, yoki uzoq yo‘lga otlanganlarga oq yo‘l birikmasi qo‘llanilgan. Ushbu misol keyinchalik muloqot jarayonini vujudga keltirishda nutqiy kommunikativlikning vujudiga misol bo‘ladi.

Umuman olganda, yozuvchi qissa davomida suhbat maqsadini amalga oshirish uchun turli strategiyalarni qo‘llaydi. Bunda kommunikatsiya vaziyatini keltirib chiqarish uchun personaj diskursda turli lisoniy vositalar, nutqiy kombinatsiyalarni qo‘llaydi. Muloqotda qo‘llaniluvchiverbal va novrbal vositalar, turli taktikalar, kombinasiyalar bir umumiy maqsadga – so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qiladi. Asarda lingvostilistik vositalarning tanlanishi, illokutiv aktning yuzaga chiqishi, ya‘ni so‘zlovchi nutqiga xos kommunikativniyatning implitsit yoki eksplitsit ifodalanishi subyektning maqsadli harakatiga bog‘liq. Shu asosda subyekt diskurs strategiyasini - suhbat maqsadini qanday amalga oshirish usulini ham belgilab oladi. Misol uchun quyidagi gapga e‘tibor bering:

1. - Bu yaxshi emas, ena jamni bilish farz, ota jamni bilish qarz, - dedilar o‘zlariga o‘zlari.

Ushbu jumladan oldingi gapda Katta ena talabalardan qayerdanligini, kimlardanligini surishtiradi. Urug‘ini so‘raganda ko‘pchiligi aytmaydi. Bundan ena ranjiydi va yuqorida keltirilgan misoldagi bu yaxshi emas birligi orqali qanchalar hafa bo‘lganligini bildiradi. Mana shu birlikka personajlar nutqida nutqiy kommunikativlikni vujudga keltiruvchi birlik sifatida qarash mumkin. Keyingi misolda esa aynan shu nutqiy vaziyat davom etadi va javob qaytariladi.

-Ena, biz odamlarni urug‘larini emas, shevalardagi o‘ziga xos jonli so‘zlarni yig‘amiz. Urug‘chilik davrlari o‘tib ketgan, - dedi, sumagi itdek oriqlar va bir joyda turolmaydigan, tinmay qilpillaydigan o‘qituvchi.

Keyingi misolga e‘tibor bering:

2 -Taradduding-ku yaxshi, lekin qilayotgan ishing podayotoqda ko‘zga chiroyli ko‘ringan tezakni bir chekkadan ho‘li quruq terishga o‘xshaydi.

Jumladagi taradduding-ku yaxshi hamda lekin qilayotgan ishing birliklari orqali personaj tomonidan undan oldingi nutqdagi vaziyatga norozilik kayfiyati seziladi. Ushbu birliklar kommunikativlikni yuzaga keltirar ekan, personajlarning ayni damdagi holatini ifodalashga ko‘maklashadi.

3. Tezakniyam toza-notozasi bo‘ladi bo‘ladi. Qumaloq, qiy nima, tezak, tappi, chalma nimaligini bilmaysan-u, go‘ngdan nurini ajratolmaysan-u yana til bilan o‘ynashasanmi?

Misoldagi –u yuklamasi va –mi affiksi kommunikativ vaziyatni yuzaga keltirayotganining guvohi bo‘lamiz.

4.Ko‘kayingda yo‘q, dilingga solinmagan ish to‘g‘risida gapitish odamni eshaklikka yaqinlashtiradi, degan burung‘ilar kitobida, - dedilar mijjalari qilt etmay, dabdurustdan. [Bahodir Qobul “Ena shamol” 3- 46 b.]Gapdagi iboraga teng keladigan Ko‘kayingda yo‘q, dilingga solinmagan ish birikmasi orqali biz aytayotgan vaziyat yuzaga keladi.

5Endi eshit. Sen aytayotgan shevani ko‘chada ko‘ringanni to‘xtatib, yozib olding ham deylik. Bu gaplarni kim ishlatadi deb yozasan?

6. Bilsang bola, san qidirib yurgan gap – so‘zlar o‘sha elning eng qimmat narsasi – qalbi.[Bahodir Qobul “ Ena shamol ” 3- 46 b.]

5-gapdagi endi eshit birlig(gapi)i bundan keyin vujudga kelayotgan kommunikativ vaziyatni, personaj nutqining naqadar muhimligini, unga diqqat qilinishi kerakligini bildirishga xizmat qiladi. 6-gapdagi bilsang bola birligi orqali esa bir nimani bilish-bilmaslik birlamchi emas, ikkilamchi vazifaga aylanadi. Birlamchi vazifada esa uning kesatiq ma’nosi anlashadi.

7– Sapiyaxon, aytingchi, Toshkentda tuqqan onasini nima deyishadi? – Opa. [Bahodir Qobul “ Ena shamol ” 3- 46 b.]

Misolda Sapiyaxon aytingchi birligi orqali nafaqat berilayotgan savolning javobi kutiladi, balki shu savol javobining savol beruvchiga ma’lum ekanligini ham bildiradi. Kommunikativ vazifa shundan iborat-ki, bunda savol – javobda qatnashayotgan ikki personajdan tashqari bo‘lgan uchinchi tomondagilar uchun, ayni damda birinchi – savol beruvchi shaxs tomonidan aytilayotgan mavzuning savolga aloqadorligi va faqat aloqador bo‘libgina qolmasdan ayni tasdig‘i ekanligidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, yuqorida keltirilgan misollardagi birliklarning barchasi(ba’zi o‘rinlarda birlik o‘rniga so‘z yoki so‘zshakllar ham keltirilgan) personajlarning nutqida kommunikativ vaziyatni yuzaga keltirgan. Ularning barchasi pragmatik tomondan tahlil qilinganda, diskurs uchun muhim bo‘ladigan elementlarni shakllantirgan va maqsadga (personaj nutqining maqsadi) erishilgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://www.supersummary.com/discourse-in-literature-definitionexamples/#discourse-outside-of-literature>

2. Стариченок В. Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону: «Феникс», 2008 –С.523
3. Genri va Tator 2002
4. <https://literarydevices.com/discours>
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика.-Т.:Узбекистон миллий энциклопедияси 2008
6. Bahodir Qobul “ Ena shamol ” 3- 46 b.

